



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 78 sahifa,
1-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining innovatsion pedagogik kompetentligini rivojlantirish mexanizmi	10
Mirzaraxonova Maftuna Ibroximjon qizi	
Elementlarini integratsiya qilish: nazariy va amaliy yondashuv	13
Ne'matov Karimjon Shavkat o'g'li	
O'qish savodxonligi darslarida kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari ...	19
Mahmudova Shoira Shavkat qizi	
O'zbek milliy musiqasi asosida talablarda estetik did va ijro madaniyatini rivojlantirish metodikasi.....	25
Gadoyeva Muborak Jumaqulovna	
O'quvchilarning yozuv kompetensiyasini baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari.....	30
Abdurashidova Xafiza Abdurashidovna	
Xurshid Do'stmuhammad qissalarida rivoyatchi strategiyasi.....	34
Uzoqova Nargiza Yuldosh qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarining ahamiyati	37
Eshpulatov Shakir Nabiyevich, Ahrorova Ozoda Amriddinovna	
"Xonada o'simliklarni o'stirish" intellekt xaritasi (Mind Map) yordamida o'quvchilarda ekologik tarbiya va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish	41
G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning tashkiliy-pedagogik jihatlari.....	46
Joldasov Ixtiyor Suyundikovich	
Boshlang'ich sinflarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari	50
N. Asadov	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda kreativ kompetentlik va kasbiy muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlik mezonlari.....	53
G. Xamidova	
Gamifikatsiya elementlarining bakalavr talabalarini raqamli resurs yaratishga motivatsiyasiga ta'siri	56
Maxkamova Dilshodaxon Xabibjon qizi	
The Influence of Family Parenting Style on the Formation of Primary School Students' Personality	59
Berdiyeva Mohloroyim Mirzohid qizi	
Noto'liq oilalardagi onalarning tarbiyaviy uslublari va farzandlarining ijtimoiy-psixologik moslashuvi (O'zbekiston namunasida).....	64
Ismoiljonov Ravshan Baxtiyor o'g'li	
Raqamli pedagogika sharoitida interfaol ta'lim metodlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish.....	69
Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna, Bekmuratova Muhayyo Uralbayevna	
Matematika ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari.....	73
Mirzayeva Shahlo, Qodirova Muattar Ilhom qizi, Rovshanova Yulduz Shovkat qizi	

GAMIFIKATSIYA ELEMENTLARINING BAKALAVR TALABALARINI RAQAMLI RESURS YARATISHGA MOTIVATSIYASIGA TA'SIRI

Maxkamova Dilshodaxon Xabibjon qizi
Qo'qon davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Gamifikatsiya, ya'ni o'quv jarayoniga o'yin elementlarini kiritish usulining bakalavr talabalarining raqamli resurs yaratishga bo'lgan motivatsiyasiga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot pedagogika yo'nalishining 2-kurs talabalari ishtirokida eksperiment shaklida tashkil etilgan. Tajriba guruhida ball tizimi hamda vaqtga bog'liq musobaqa elementlari qo'llanilib, natijalar ARCS modeli asosida baholangan. Tadqiqot natijalari gamifikatsiyaning talabalar faolligi va motivatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Shu bilan birga, mazkur yondashuvning ayrim cheklovlari ham aniqlangan.

Kalit so'zlar: gamifikatsiya, motivatsiya, raqamli resurs yaratish, ARCS modeli, bakalavr ta'limi, o'yin texnologiyalari.

Abstract: The impact of gamification, namely the integration of game elements into the educational process, on bachelor students' motivation to create digital resources was investigated. The study was conducted in the form of an experiment involving second-year pedagogy students. A point-based system and time-limited competitive activities were applied in the experimental group, while the results were evaluated using the ARCS model. The findings confirmed that gamification has a positive effect on students' engagement and motivation. At the same time, several limitations of this approach were also identified.

Key words: gamification, motivation, digital resource creation, ARCS model, bachelor education, game technologies.

Аннотация: Изучено влияние геймификации, то есть внедрения игровых элементов в образовательный процесс, на мотивацию студентов бакалавриата к созданию цифровых ресурсов. Исследование было организовано в форме эксперимента с участием студентов 2-го курса педагогического направления. В экспериментальной группе использовались балльная система и соревновательные элементы, ограниченные по времени, а результаты оценивались на основе модели ARCS. Полученные результаты подтвердили положительное влияние геймификации на активность и мотивацию студентов. Вместе с тем были выявлены и некоторые ограничения данного подхода.

Ключевые слова: геймификация, мотивация, создание цифровых ресурсов, модель ARCS, бакалаврское образование, игровые технологии.

KIRISH

Bugungi kunda raqamli resurslar yaratish ko'nikmasi talabalarda shakllanishi lozim bo'lgan asosiy kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Prezentatsiya tayyorlash, videodarslik yozish, infografika yaratish kabi faoliyatlar endilikda faqat IT mutaxassislari vazifasi emas. Pedagogika, iqtisodiyot, tibbiyot kabi turli soha talabalari ham ushbu ko'nikmaga ega bo'lishi talab etilmoqda.

Ammo amaliyotda boshqacha holat kuzatiladi. Talabalar bunday topshiriqlarga ko'pincha rasmiy yondashadi, ya'ni "biror ish qilib topshirsa bo'ldi" degan qarash ustunlik qiladi. Bu holat sifatning pastligi bilan emas, balki ishtiyonning yetishmasligi bilan bog'liq. Demak, muammo bilimda emas, motivatsiyada namoyon bo'lmoqda.

Motivatsiya masalasiga pedagogikada ko'p bora murojaat qilingan. Ryan, R. M. va Deci, E. L. ^[7] ta'kidlaganidek, insonni biror faoliyatni bajarishga undovchi kuch ikki xil bo'ladi: ichki (qiziqish, zavq) va tashqi (mukofot, raqobat). Ta'lim jarayonida ushbu ikki omildan samarali foydalanish mumkin, biroq ularning nisbatini to'g'ri belgilash muhim hisoblanadi.

Gamifikatsiya – tashqi motivatsiya vositasi sifatida – so'nggi o'n yil ichida ta'lim tizimida keng qo'llanila boshladi. Ball berish, reyting jadvali yuritish, musobaqalar tashkil etish kabi usullar talabalarni faolroq bo'lishga undaydi. Bir qator xorijiy tadqiqotlar (J. Hamari ^[5] va D. Dicheva ^[4]) ushbu usulning samaradorligini ko'rsatgan. Biroq mahalliy kontekstda, xususan, raqamli resurs yaratish mashg'ulotlarida gamifikatsiyaning qay darajada samarali ekanligini o'rgangan tadqiqotlar yetarli emas.



Mazkur maqolada aynan quyidagi savolga javob izlanadi: ball tizimi va vaqtga bog'liq musobaqa shaklidagi gamifikatsiya elementlari talabalar motivatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadimi?

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Gamifikatsiya ta'lim jarayonida motivatsiyani oshirishning samarali vositalaridan biri sifatida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. S. Deterding va hammualliflari gamifikatsiyani o'yin elementlarini noo'yin faoliyatiga tatbiq etish jarayoni sifatida izohlaydi hamda uning asosiy maqsadi foydalanuvchi faolligini oshirish ekanligini ta'kidlaydi.

J. Hamari olib borgan tadqiqotlarda esa gamifikatsiya elementlari, xususan, ball tizimi, reyting va musobaqalar talabalar ishtirokini faollashtirishi, o'quv faoliyatiga qiziqishni kuchaytirishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

D. Dicheva tadqiqotlarida gamifikatsiyaning ta'lim jarayonidagi afzalliklari bilan bir qatorda, uni noto'g'ri qo'llash ichki motivatsiyaning pasayishiga ham olib kelishi mumkinligi qayd etilgan.

Motivatsiya nazariyalari doirasida R. Ryan va E. Deci tomonidan ishlab chiqilgan "Self-determination theory" ta'limdagi ichki va tashqi motivatsiya omillarini izohlab beradi. Ularning fikricha, talabada mustaqillik, kompetentlik va ijtimoiy aloqadorlik hissi shakllansa, o'quv faoliyatiga qiziqish ortadi.

A. Bandura esa o'zining "self-efficacy" nazariyasida shaxsning o'z imkoniyatiga bo'lgan ishonchi faoliyat natijadorligiga bevosita ta'sir qilishini ta'kidlaydi. Shu nuqtai nazardan gamifikatsiya talabada muvaffaqiyat hissini uyg'otish orqali motivatsiyani kuchaytiruvchi omil sifatida qaraladi.

O'zbek olimlari orasida J. G'. Yo'ldoshev raqamli ta'lim muhitida pedagog kompetensiyasini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Tadqiqotlarda raqamli resurs yaratish ko'nikmalari zamonaviy ta'limning muhim tarkibiy qismi sifatida baholanib, talabalarni innovatsion faoliyatga jalb etishda motivatsion yondashuvlarning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, J. Keller tomonidan ishlab chiqilgan ARCS modeli motivatsiyani diqqat, dolzarblik, ishonch va qoniqish mezonlari asosida baholash imkonini beradi. Mazkur yondashuv gamifikatsiya elementlarining bakalavr talabalarining raqamli resurs yaratish faoliyatiga ta'sirini tahlil qilishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot 2025–2026-o'quv yilida o'tkazildi. Ishtirokchilar sifatida pedagogika yo'nalishining 2-kurs bakalavriat talabalariga "Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" fanini o'qitish jarayoni tanlandi. Talabalar ikki guruhga bo'lindi: tajriba guruhi gamifikatsiya elementlari kiritilgan sharoitda ishladi, nazorat guruhi esa an'anaviy tartibda topshiriqlar bajardi. Ikkala guruh ham o'xshash bilim va motivatsiya darajasidan boshlagani tadqiqot boshidagi o'lchov orqali tasdiqlandi.

Gamifikatsiya elementlari sifatida tajriba guruhida ikki turdagi usul qo'llanildi. Birinchisi – ball tizimi va reyting jadvali bo'lib, bunda har bir topshiriq sifati, o'z vaqtida bajarilgani va kreativligiga qarab baholandi, natijalar esa haftalik ochiq jadvalda aks ettirildi. Ikkinchisi – "sprint" musobaqalari bo'lib, har ikki haftada bir marotaba talabalar belgilangan vaqt ichida raqamli resurs yaratdi va eng yaxshi ishlar e'tirof etildi. Ushbu format talabalar orasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirdi.

Motivatsiya darajasini baholashda J. Keller ^[6] tomonidan ishlab chiqilgan ARCS modeli asosidagi so'rovnomadan foydalanildi. ARCS modeli motivatsiyaning to'rt jihatini o'lchaydi:

1. **Attention** (diqqat – qiziqish uyg'ondimi?),
2. **Relevance** (dolzarblik – bu menga kerakmi?),
3. **Confidence** (ishonch – uddalay olamanmi?),
4. **Satisfaction** (qoniqish – yaxshi chiqdi deb his qildimmi?).

So'rovnoma tadqiqot boshida va yakunida to'ldirildi.

Bundan tashqari, har bir talabaning o'sha 10 hafta davomida qancha va qanday sifatda raqamli resurs yaratgani ham kuzatib borildi. Bu esa motivatsiyaning amaliy natijaga qay darajada bog'liqligini aniqlash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot yakunida olingan ma'lumotlar gamifikatsiya qo'llangan guruhda motivatsiya darajasining sezilarli oshganini ko'rsatdi. Ayniqsa, "Qoniqish" va "Dolzarblik" ko'rsatkichlari bo'yicha o'sish yaqqol namoyon bo'ldi. Talabalar topshiriqni mazmunli deb his qila boshlagani va uni yakunlagandan so'ng o'zlarini g'olibdek his qilganliklari so'rovnoma javoblarida ham aks etdi.

Nazorat guruhida ham ma'lum darajada o'sish kuzatildi, biroq bu ko'rsatkich ancha past bo'ldi. Mazkur holatni mavzuning yangi bo'lishi bilan bog'liq tabiiy o'sish sifatida baholash mumkin.

1-jadval: ARCS ko'rsatkichlari bo'yicha ikki guruh natijalarining taqqoslanishi

ARCS o'lchovi	Tajriba (oldin)	Tajriba (keyin)	Nazorat (oldin)	Nazorat (keyin)
Diqqat	o'rta daraja	yuqori	o'rta daraja	o'rta daraja
Dolzarblik	o'rta daraja	yuqori	o'rta daraja	o'rta daraja
Ishonch	past-o'rta	yuqori	past-o'rta	o'rta daraja
Qoniqish	o'rta daraja	juda yuqori	o'rta daraja	o'rta daraja

Faoliyat natijalari ham shunga o'xshash manzarani ko'rsatdi: tajriba guruhidagi talabalar o'n hafta davomida ko'proq raqamli resurs yaratdi va ularning sifati ham yuqori baholandi. Albatta, buni faqat gamifikatsiya ta'siri bilan izohlash qiyin, chunki boshqa omillar ham mavjud bo'lishi mumkin. Biroq umumiy tendensiya aniq kuzatildi.

Qiziqarli jihatlardan biri shuki, musobaqa haftalarida talabalar odatdagidan ertaroq kelib, topshiriqlarni oldindan tayyorlay boshlagan. Demak, gamifikatsiya nafaqat sifatga, balki ish tartibiga ham ta'sir ko'rsatgan.

Olingan natijalar umumiy jihatdan kutilgan yo'nalishda bo'ldi. Gamifikatsiya motivatsiyani oshiradi – bu xorijiy tadqiqotlar (J. Hamari ^[9]) bilan ham mos keladi. Biroq tadqiqotda motivatsiyaning barcha jihatlari bir xil darajada oshmagani aniqlandi.

“Ishonch” ko'rsatkichi, ya'ni talabaning o'z kuchiga ishonchi taxmin qilinganidan ko'ra yuqoriroq darajada oshdi. Buni quyidagicha izohlash mumkin: musobaqada yutqazgan talaba ham topshiriqni bajarib, o'z natijasini ko'rdi. Natijani ko'rish esa o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi. Bu holat A. Banduraning ^[1] o'z-samaradorlik (self-efficacy) nazariyasiga mos keladi.

Shu bilan birga, ayrim salbiy jihatlar ham kuzatildi. Reyting jadvali ba'zi talabalar uchun qo'shimcha bosim manbaiga aylandi. Ayrim talabalar suhbat davomida: “Men har doim pastda turaman, endi qatnashishning ma'nisi yo'q”, degan fikrlarni bildirdi. Bu “overjustification” hodisasiga yaqin bo'lib, tashqi rag'bat ayrim hollarda ichki motivatsiyani susaytirishi mumkinligini ko'rsatadi (E. Deci ^[2]). Shu sababli gamifikatsiyani nazoratsiz yoki ko'r-ko'rona qo'llash maqsadga muvofiq emas.

Bizning fikrimizcha, reyting umumiy ko'rsatkich bilan bir qatorda shaxsiy taraqqiyotni, ya'ni “o'tgan haftaga nisbatan qancha o'sdim?” degan mezonni ham aks ettirishi lozim. Shundagina nisbatan sustroq talabalar ham tizimdan umidini uzmaydi.

Cheklovlar. Tadqiqot faqat bitta universitetda va kichik guruhda o'tkazildi. Kelgusida tadqiqotni ko'proq ishtirokchilar hamda turli yo'nalish talabalari ishtirokida takrorlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Gamifikatsiya – to'g'ri qo'llanilganda – talabalarning raqamli resurs yaratishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishning samarali vositasi hisoblanadi. Ball tizimi va musobaqa elementlari diqqatni, ishonchni hamda qoniqishni bir vaqtning o'zida oshira oladi. Bu esa ko'plab qo'shimcha resurslarni talab qilmaydi: oddiy platforma yoki hatto doskadagi jadval ham yetarli bo'lishi mumkin.

Kelgusida nishon va daraja kabi boshqa gamifikatsiya elementlarini ham sinab ko'rish, shuningdek, mazkur yondashuvning uzoq muddatli ta'sirini o'rganish foydali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Bandura, A. (1997). Self-efficacy: The exercise of control. Freeman.
- Deci, E. L., Koestner, R., & Ryan, R. M. (1999). A meta-analytic review of experiments examining the effects of extrinsic rewards on intrinsic motivation. *Psychological Bulletin*, 125(6), 627–668.
- Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). From game design elements to gamefulness: Defining gamification. *Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference*, 9–15.
- Dicheva, D., Dichev, C., Agre, G., & Angelova, G. (2015). Gamification in education: A systematic mapping study. *Educational Technology & Society*, 18(3), 75–88.
- Hamari, J., Koivisto, J., & Sarsa, H. (2014). Does gamification work? A literature review of empirical studies on gamification. *Proceedings of the 47th Hawaii International Conference on System Sciences*, 3025–3034.
- Keller, J. M. (1987). Development and use of the ARCS model of instructional design. *Journal of Instructional Development*, 10(3), 2–10.
- Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation. *American Psychologist*, 55(1), 68–78.
- Yo'ldoshev, J. G'. (2021). Raqamli ta'lim muhitida o'qituvchi kompetensiyasini rivojlantirish. *Pedagogika va psixologiya*, 3, 12–19.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.